

**YER TUZISH LOYIHALARI ASOSIDA DEGRADATSIYAGA UCHRAGAN
YAYLOVLARDA DEHQON VA FERMER XO`JALIKLARI TASHKIL
ETISH TASHKIL ETISHNING AFZALLIKLARI**

Axmedov Umidjon Alijon o'g'li

"O'zdavyerloyiha" davlat ilmiy- loyihalash instituti

"Qashvilyerloyiha" bo'linmasi yetakchi muhandis

Anotatsiya

Respublikamizda yer resurslaridan oqilona va samarali foydalanish, yer tuzish, yer monitoringi va yaylov yerlarida geobotanik tadqiqotlarni tashkil etish, ayniqsa agrar sohada qishloq xo'jaligi yaylov yerlaridan samarali foydalanish yuzasidan keng qamrovli chora-tadbirlar amalga oshirilib, muayyan natijalarga erishilmoqda. 2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida «...yangi va foydalanishdan chiqqan 464 ming hektar maydonni o'zlashtirish, ilm-fan va innovatsiyaga asoslangan agroxizmatlar ko'rsatish tizimini takomillashtirish, agrosanoat korxonalarini xomashyo bilan ta'minlash va ishlab chiqarish hajmini 1,5 baravar oshirish» muhim strategik vazifalar sifatida belgilab berilgan. Mazkur vazifalarni amalga oshirishda, jumladan, yerdan foydalanuvchilar faoliyatiga ilmiy asosda yondoshish orqali yaylov yerlarida hamda agrar soha barqarorligini va mamlakat oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Annotation

In our republic, comprehensive measures are being implemented in connection with rational and effective use of land resources, land preparation, land monitoring and geobotanical research on pasture lands, especially in the agrarian sector, effective use of agricultural pasture lands, and certain results are being achieved. In the development strategy of New Uzbekistan for 2022-2026, it is stated that "... development of 464,000 hectares of new and disused land, improvement of the system of agro-services based on science and innovation, provision of raw materials to agro-industrial enterprises and development 1.5-fold increase in output volume" are defined as important strategic tasks. In the implementation of these tasks, scientific research on ensuring the stability of the agricultural sector and the food security of the country is gaining importance by approaching the activities of land users on a scientific basis.

Аннотация

В нашей республике осуществляются комплексные мероприятия в связи с рациональным и эффективным использованием земельных ресурсов, подготовкой земель, мониторингом земель и геоботаническими исследованиями на пастбищных угодьях, особенно в аграрной сфере, эффективным

использованием пастбищных угодий сельскохозяйственного назначения, и достигаются определенные результаты. Достигнуто. В стратегии развития Нового Узбекистана на 2022-2026 годы указано, что «... освоение 464 000 га новых и заброшенных земель, совершенствование системы агросервиса на основе науки и инноваций, обеспечение сырьем агропромышленных комплексов. -промышленные предприятия и разработка 1,5-кратного увеличения объемов производства» определены как важные стратегические задачи. В реализации этих задач все большее значение приобретают научные исследования по обеспечению устойчивости аграрного сектора и продовольственной безопасности страны путем подхода к деятельности землепользователей на научной основе.

Kalit so`zlar : Degradatsiya, Agroxizmatlar, Taraqqiyot strategiyasi, O‘zdaverloyiha institute.

Key words : Degradation, Agroservices, Development strategy, Uzdaverloyha institution.

Ключевые слова : Деградация, Агросервисы, Стратегия развития.

Kirish

Respublikamizda 21,1 mln gektar yaylovlardan (46,5%) mavjud, so‘nggi 35-40 yil davomida yaylov o‘simgilari soni va hajmi kamayib, degradatsiyaga uchragan maydonlar ko‘paygan. Respublikamizda tog‘, tog‘oldi va cho‘l yaylovlari tuproqlarning hozirgi holatini aniqlash, degradatsiya jarayonlarini oldini olish, mahsuldarligini oshirish, yaylovlarni muhofaza qilish va ulardan foydalanish samaradorligini oshirish bo‘yicha keng qamrovli ilmiy-tadqiqotlar olib borilib, muayyan natijalarga erishilmoqda. Shu sababli respublikamiz qishloq xo‘jaligini yanada rivojlantirishda tog‘oldi va cho‘l yaylovlarda monitoring tadqiqotlarini yuritish, xususan, tabiiy yaylovlardan to‘g‘risidagi miqdoriy va sifatga doir ma’lumotlar haqida axborot to‘plash, ularning holatini baholash va prognoz qilish, salbiy jarayonlarni aniqlash hamda bartaraf etish maqsadida tabiiy yaylovlardan o‘simgilarning holati, tabiiy yaylovlardan foydalanish natijasida yuzaga kelayotgan o‘zgarishlar yuzasidan kuzatuvlar olib borish muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘zdaverloyiha» davlat ilmiy-loyihalash instituti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga kiritilgan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018- yil 23- apreldagi 299-son «Ma’muriy hududlar birliklar chegarasini belgilash, yer resurslarini xatlovdan o‘tkazish hamda yaylov va pichanzorlarda geobotanik tadqiqotlarni o‘tkazish tartibini yanada takomillashtirish to‘g‘risida»gi qarori , hamda BMT Taraqqiyot Dasturi-GEFning «Dunyo miqyosida muhim biologik xilma-xillik turlari uchun muhim bo‘lgan tog‘li mintaqalarda tabiiy resurslar va o‘rmon xo‘jaligidan barqaror foydalanish» loyihasi doirasida (2019-2021- yy.) bajarilgan.

Bu borada hukumatimiz tomonidan bir qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Xususan, O‘zbekiston Respublikasining Yer kodeksi, O‘zbekiston Respublikasining «Yaylovlar to‘g‘risida»gi va «Davlat yer kadastri to‘g‘risida»gi Qonunlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 7 sentabrdagi PF-6061-son Farmoni, 2021 yil 24 fevraldagi PQ-5006-son qarori, Vazirlar Mahkamasining 2000 yil 23 dekabrdagi «O‘zbekiston Respublikasida yer monitoringi to‘g‘risida nizomni tasdiqlash haqida»gi 496-son, 2019 yil 24 sentabrdagi «O‘zbekiston Respublikasida atrof tabiiy muhitning davlat monitoringi tizimini takomillashtirish to‘g‘risida»gi 737-son hamda 2022 yil 14 yanvardagi «Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlarda monitoring ishlarini amalga oshirish, yerlarni muhofaza qilish va yer tuzish faoliyatini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida» gi 22-son qarorlarida aynan tabiiy yaylovlar o‘simpliklarining monitoringini yuritishga qaratilgan vazifalar belgilab qo‘yilgan.

Shulardan kelib chiqib Qashqadaryo viloyati hokimining 2022 yil 07-apreldagi 12-4-0-F/22-sonli farmoyishiga asosan institutning “Qashvilerloyixa” bo‘linmasi mutaxassislari tomonidan Qashqadaryo viloyati Mirishkor tumanining tabiiy yaylovlar o‘simpliklarining monitoring ishlari olib borildi.

Tumanning umumiy maydoni 312538 hektar bo‘lib, shundan o‘rmon xo‘jaligi yerlaridan tashqari 217946 hektari yaylov va pichanzorlar hisoblanadi. Monitoring 1:10000 mashtabdagi qishloq xo‘jalik xaritasi va elektron xaritasidan foydalangan holda olib borildi.

Ushbu ishlarni bajarish jarayonida “O‘zdaverloyiha” davlat ilmiy-loyihalash instituti Ilmiy kengashida 2023 yil 30 martida (13-sonli bayonnomma) ko‘rib chiqilgan va tasdiqlangan “Tabiiy yaylovlar o‘simpliklarining monitoringini yuritish ishlarini amalga oshirish bo‘yicha” qo‘llanma talablariga muvofiq tabiiy yaylovlar to‘g‘risidagi miqdoriy va sifatga doir ma’lumotlar haqida axborot to‘plash, ularning holatini baholash va proqnoz qilish, degradatsiyaga uchragan yaylovlar maydonini aniqlash, salbiy jarayonlarni aniqlash hamda bartaraf etish maqsadida tabiiy yaylovlar o‘simpliklarining holati, tabiiy yaylovlardan foydalanish natijasida yuzaga kelayotgan o‘zgarishlar yuzasidan kuzatuvlar yo‘lga qo‘yildi.

Tadqiqotlar jaryonida biz tomonidan yaratilgan elektron raqamli xaritalar Qashqadaryo viloyati Mirishkor tumanidagi yaylov yerlarining aniq hisobini yuritish, degradatsiyaga uchragan yaylovlar maydonini aniqlash, birlamchi yaylov urug‘chilik maydonlarini tashkil qilish va chorva mollarini almashlab boqish imkonini bergen hamda respublika «Yaylov yerlari monitoring tizimi» portalini ma’lumotlar bilan ta’minlashda asos bo‘lib xizmat qilmoqda.

Xulosa

Kuzatishlarimiz natijasida Mirishkor tumanining mavjud 217946 gektar yaylovlarda asosan yaylovlarda sun'iy agrofitotsenoz tashkil qilishning afzallikkari yuqori ekanligi aniqlandi

Hosildorligi past bo'lgan yaylovlarni tiklash maqsadida, mutaxassislar tavsiyalariga asosan hosildorligi yuqori bo'lgan ozuqabop o'simliklarning birlamchi urug'chilik maydonlarini tashkil etish, yaylovlardan degradatsiyasining oldini olish maqsadida yaylovlarni almashinishi bilan yaylovlarning unumdarligini oshirishga, ularning ayrim joylarini yilning muayyan fasllarida foydalanishdan to'liq yoki qisman chiqarib tashlash maqsadga muvofiq.

Tumanning 2 ta xududida yaylov maydonlarining ma'lum bir xududini yani ikki yoki uch gektar maydonlarni sim to'siqlari bilan o'ragan xolda urug' yetishtirib, ushbu urug'larni degradatsiya (inqiroz)ga uchragan maydonlarga ekish- uzoq va kam foydalaniladigan yaylovlarga boradigan dala yo'llarini yaxshilash hamda yangidan yo'llar ochish;

- aholidan uzoq xududlarda chorva mollarini saqlaydigan va cho'ponlar uchun sharoitlar yaratilgan maxsus joylar tashkil etish;

- fermer xo'jaliklari va yaylovdan foydalanuvchilar kooperativlari tomonidan ma'lum xududlarni sim to'siqlar bilan o'rash, bunda yaylov urug'chiligi tashkil etiladi hamda qishlovga zahira sifatida pichanzorlar hosil bo'ladi

- daraxt, buta va yarimbuta o'simliklarni aholi tomonidan yoqilg'i va boshqa maqsadlarda foydalanmaslik uchun aholiga keng ko'lamli tushuntirish ishlarini olib borish;

Foydalilanigan adabiyotlar :

1. "Ko'chmas mulk kadastro" o'quv qo'llanma A.R.Babajanov. Toshkent 2014
2. Alimov R.X., Berkinov B.B., Kravchenko A.N., Xodiev B.Yu. / O'zR FA Akademigi
3. G'ulomov S.S. tahriri ostida. Ko'chmas mulkni baholash. Toshkent: "Fan". - 231 b.
4. Vazirlar Maxkamasining 2014 yil 18 avgustdagagi 235-sonli qarori.
5. O'zbekiston Respublikasi yer resurslarining holati to'g'risida Milliy hisobot. Toshkent: Davlat kadastrlar palatasi, 2021.